DORIVOR TOG' JAMBILI(THYMUS VULGARIS) O'SIMLIGINI URUG'IDAN KO'PAYTIRIB XALQ TABOBATIDA FOYDALANISH

Mamatqulova Iroda Ergashovna

O'zbekiston Milliy Universiteti

Jizzax filiali o'qituvchisi.

Asqatova Sevinch Baxodir qizi

O'ZMU JF, 2-bosqich talabasi.

Annotasiya: Hozirgi kundagi ko'pgina bronxial(astma) oshqozon ,ichak kasalliklari juda keng tarqalgan. Dorivor (THYMUS VULGARIS) o'simligning urug'idan ko'paytirib dorivor preparatlar yaratib mana shu kasalliklarni davolashdan iborat.

Mavzuning maqsadi O'simlikda efir moyi yer ustki qismida yashil shoxchalarida gullash vaqtida ko'p to'planadi.Mana shu xussiyatidan foydalanib dorivor eferlar va anseptik moylar ishlab chiqarishda ffoydalaniladi.

Kalit so'zlar: Urug' seyalka,quyuq ekstrakt.

Ma'lumot.

Tog' jambili (Thymus vulgaris) Labguldoshlar (Lamiacae) oilasi, jambil-(Thymus) turkumiga mansub, bo'yi 40–60 sm ga yetadigan xushbo'y yarimbuta o'simlik.Asosiy ildizi pastga qarab burama hosil qilib o'rnashgan, yon ildizlari esa atrofga kuchli tarqalgan bo'ladi. Poyasi tik o'suvchi, 4 qirrali, yuqori qismidan shoxlanadigan, ko'p shoxchalari poyada qarama-qarshi joylashgan. Barglari mayda, qisqa bandi bilan poyada qarama-qarshi joylashgan, uzunligi 5-10 mm, eni 2-3 mm keladi. Tog' jambilidan tabobatda dizenfeksiyalovchi, og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, gijjaga qarshi vosita sifatida ishlatiladi. Quyuq ekstraktlaridan esa tomoq va bronxlar, oshqozon-ichak kasalliklarida, uyqusizlik, bo'g'im kasalliklari, asab va teri kasalliklarida, hamda stamologik muammolarda ishlatiladi. Bu o'simlik spirtli ichimliklarga moyillikni kamaytirib, alkogolizmni davolashda qo'llaniladi. Shuningdek tog' jambilni radikulit kasalligi, hamda nerv tomirlarining shamollashi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarda og'riq qoldiruvchi vosita sifatida tavsiya etiladi.

Material va usullar Tog' jambilining urug'i juda mayda bo'lib, 1000 ta urug' 0,2-0,3 g keladi, uning unuvchanligi 70-80 foizgacha bo'ladi. O'simlik urug'ini katta maydonlarga ekishdan avval yer yaxshilab ishlanadi, har xil o't va ildizpoyalardan tozalangandan so'ng urug' sepiladi. O'simlikni katta maydonlarga ekilganda urug'lar seyalkalar yordamida gektariga 6-7 kg dan, chuqurligi 1-1,5 sm, oraliq masofasi 45-60 sm qilib ekiladi. Tog' jambilning urug'lari 3-4 kundan so'ng una boshladi.

Natijalar. Dorivor o'simligning vegetativ organlari tayyor bo'lgandan so'ng barglari olinib quritiladi.Bu xususiyatidan ayniqsa sabzavotli va go'shtli taomlar hamda turli xil salatlar tayyorlashda foydalnilsa ajoyib ta'm beradi Bundan tashqari xushbo'y asal tayyorlashda ham ishlatiladi.O'simlikdan quyuq ekstraktlar tayyorlanib bronxial astma oshqozon-ichak kasalliklarida, uyqusizlik, bo'g'im kasalliklari, asab va teri kasalliklarida, hamda stamologik muammolarda ishlatiladi.

Xulosa. Dorivor tog' jambili Thymus vulgaris o'simligi barcha kasalliklarda tabbiy dorivor o'simlik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 541100—Dorivor o’simliklar yetishtirish va qayta ishlar texnologiyasi”
2. Satish S, Mhana C, Raghavendra deputati, Raveesha KA. Ba'zi o'simlik ekstraktlarining antifungal faolligi Aspergillus spp ning muhim urug'lik patogenlariga qarshi. J Agricultural Tech 2007;3:109-19.
3. Xolm atov X. X., Habibov. 0 ‘zbekiston dorivor o ‘simliklari. Toshkent, 1971.
4. Ermatov A. Sug‘oriladigan dehqonchilik. Toshkent, 1983.
5. Chxotua E. S. Limon yetishtirish agrotexnikasi. Toshkent. 1980 M urdaxayev Yu.M. 0 ‘zbekistonda vatan topgan dorivor o ‘simliklar. Toshkent, 1990.